


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor

Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)
Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
2. Murodov G‘ayrat Nekovich EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
3. Чупонов Отаназар Отажонович РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
4. Худайбергенова Умида Комилджановна СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
5. Pardayeva Sojida Ahmatovna WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
11. Абдиева Камола Аслидин кизи ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

IQTISODIYOT

1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
2. Кипкеева Асият Магомедовна ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
3. Annazarova Barno Rustamovna RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишников Дина Рафаиловна**
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**
GENDER IJTIMOYILASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

TIBBIYOT


- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

TARIX

- 1. Mustafa Demirci**
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**
АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249

Murodov G'ayrat Nekovich,
Filologiya fanlari doktori, professor
Buxoro davlat universiteti

EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIIY BOG'LANISHLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515383>

ANNOTATSIYA

Maqolada eng qadimiy epik janrlardan biri hisoblangan epos (epopeya) bilan yangi davr eposi – roman orasidagi bog'lanishlar haqida fikr yuritilgan. Eposning badiiy-poetik strukturasi, undagi obrazlar tizimi, sujjet tarkibi roman janrining yuzaga kelishi va shakllanishi uchun muhim manba bo'lgani ilmiy-nazariy jihatdan ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: epos (epopeya), roman, epik janr, hind eposi, bosh qahramon, Markaziy Osiyo adabiyoti.

Muradov Gayrat Nekovich,
Doctor of Philology, Professor
Bukhara State University

EPOS AND NOVEL: LITERARY-ARTISTIC CONNECTIONS

ABSTRACT

The article discusses the connections between one of the oldest epic genres, epos (epopeia), and the novel of the new era. It has been scientifically and theoretically shown that the artistic-poetic structure of the epic, the system of images in it, and the composition of the plot are an important source for the emergence and formation of the novel genre.

Keywords: epos (epic), novel, epic genre, Indian epic, protagonist, Central Asian literature.

Мурадов Гайрат Некович,
Доктор филологических наук, профессор
Бухарский государственный университет

ЭПОС И РОМАН: ЛИТЕРАТУРНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ СВЯЗИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются связи эпоса, являющегося одним из древнейших эпических жанров, и эпоса новой эпохи – романа. Научно и теоретически показано, что художественно-поэтическая структура эпоса, система образов в нем, композиция сюжета являются важным источником возникновения и формирования романного жанра.

Ключевые слова: эпос (эпопея), роман, эпический жанр, индийский эпос, главный герой, среднеазиатская литература.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Markaziy Osiyo adabiyotlararo jarayoni hududiga kiruvchi o'zbek ("O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon"), tojik-o'zbek ("Doxunda", "Qullar") adabiyotlarida ulkan epik janrning dastlabki namunolari tarixiy roman shaklida paydo bo'ldi. Bu romanlarda o'tmishning badiiy solnomalari, yaxlit epik manzaralari tasvirida murakkab tarixiy, ruhiy-ma'naviy muammolar, milliy tarix zuhur topdi.

Markaziy Osiyo adabiyotlararo jarayonida epik turning katta shakli "tarixiy roman" sifatida paydo bo'lishi o'z asoslariga ega.

Bu hodisa Markaziy Osiyo romanining genetik-aloqaviy jihatdan folklorning epopeya janriga borib tutashishidan dalolat beradi. M. Baxtinning fikriga ko'ra, epopeya olami – milliy qahramonlik tarixi, millat moziysining "ibtidosi" va "cho'qqisi" olami, ota va bobokalonlarning olami... Epopeya hech qachon hozirgi zamon haqidagi, o'z davri haqidagi doston bo'lmagan: epopeya azaldan bizga ma'lum holda shakllangan janr tarzida o'tmish to'g'risidagi doston edi [1, C. 228-237].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Epopeya (epos)ning mukammal shakliy va janriy tuzilishi, asosiy konstitutiv xususiyatlari Markaziy Osiyo romani genezisi, tarkib topishi hamda uning tarixiy roman shakli uchun o'ziga xos zamin hozirlab berdi.

Shu bilan birga, romanning badiiy mundariyasi epopeyadan farqli ravishda mutloq epik masofadagi voqelikni emas, A.Qodiriy so'zlari bilan aytganda, "yaqin o'tgan kunlar"ni aks ettirdi. Markaziy Osiyo tarixiy romanining birinchi namunolari bo'lgan "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Doxunda", "Qullar"da tasvirlangan davr "yaqin o'tgan kunlar"dir.

TADQIQOT NATIJALARI.

A.Qodiriy ham, S.Ayniy ham moziyni keng, chuqur, epik ko'lamdor tasvirlash uchun epos janrlari orasidan roman shaklini tanlab olganlar. Chunki "o'tmishni o'tmish sifatida chinakam ob'ektiv tasvirlash faqat romandagina mumkin" [1, C. 417].

Romanning had bilmas ulkan epik maydoni o'z hududiga ulkan tarixiy voqea-hodisalarni, shu voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'lgan, uning tarixiy-ijtimoiy oqimini belgilagan xalq, inson ruhiyatining teranligini, ko'lamini mufassal, badiiy ta'sirchan ifodalab berishga imkon yaratdi.

"O'tkan kunlar" tajribasi Yevropa, ma'lum darajada zamonaviy Sharq (arab) epik adabiyotida shakllangan "Valter Skott romani"ni poetik, badiiy mundarija jihatidan yangi sifat bosqichiga olib chiqdi.

"O'tkan kunlar" adabiy-tarixiy davr nuqtai nazaridan o'ziga xos sharoitda, jadid - ma'rifatparvarlik adabiyoti o'z faoliyati, hayotini yakunlayotgan, adabiyotlararo jarayonning yangi, sinfiy-partiyaviy mohiyatga to'yingan tarixiy shakli – "ko'p millatli sovet adabiyoti" talablari, aqidalari, "ijodiy metodi" hali ishlab chiqilmagan bir paytda yuzaga keldi. Jadid-ma'rifatparvarlik harakati negizida vujudga kelgan adabiyotlararo mushtaraklikning tasvir prinsiplari, ideallari, g'oyaviy-badiiy konsepsiyalari "O'tkan kunlar"ning badiiy olami yaxlitligi, epik barkamolligini ta'min etdi.

Epos va roman janrlari orasidagi aloqadorlik va uyg'unlikni yigirmanchi asr o'zbek tarixiy romanining yetuk namunalariladan biri bo'lgan "Avlodlar dovoni"da aniq ko'rish mumkin.

"Avlodlar dovoni" bilan Markaziy Osiyo tarixiy romanchiligining eng yaxshi namunolari ("O'tkan kunlar", "Doxunda", "Navoiy", "Abay yo'li")ni qahramonning badiiy strukturasi, shaxs va muhit munosabatlari tasviri, xalq hayotini keng epik ko'lamda tasvirlash, ijobiy va salbiy personajlarning aniq va qat'iy chizgilar bilan ajratilishi singari xususiyatlar yaqinlashtirib, bog'lab turadi.

Ayniqsa, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Navoiy”, “Abay yo‘li” “Ulug‘bek xazinasi” romanlarining markazida turgan davlatchilik, hukmdor va jamiyat, muhit muammolari “Avlodlar dovoni”da ham tarixiylik va badiiylik prinsiplariga asosan talqin etilgan.

Yozuvchi Akbar obrazida adolatli, irodali, iste‘dodli davlat arbobining asosiy xususiyatlarini mujassamlashtirgan.

Akbar tipidagi odil va o‘ktam davlat arbobi obrazi folklor, mumtoz adabiyotdagi asarlarda mavjud. Bu o‘rinda klassik epos (epopeya)ning barkamol namunalari: shumerlarning “Gilgamish”, turkiy xalqlarning “Alpomish” [2], “Go‘ro‘g‘li”; hindlarning “Mahobhorat” [3], yunonlarning “Iliada” [4] kabi asarlari markazida turuvchi romantik qahramonlarni eslash joizdir.

“Gilgamish” jahon so‘z san‘atida eposning birinchi namunasi sifatida keyingi davrlarda yaratilgan barcha epopeya namunalari xos ustuvor xususiyatlarni o‘z badiiy strukturasi mujassam etgan. To‘g‘ri, adabiy-badiiy jarayonning navbatdagi bosqichlarida yuzaga kelgan epos namunalari bilan “Gilgamish” orasida badiiy-genetik bog‘lanishlar bo‘lmasligi mumkin. Ammo so‘z san‘atining, xususan, qadimiy epik janrning umumtipologik xususiyatlari eposlararo yaqinlik – mushtaraklikning mavjud ekanligidan yaqqol dalolat berib turadi.

Tarixiy-genetik tomondan mushtarak jihatlarning mavjudligini quyidagi ikki omil orqali ko‘rsatish mumkin.

Birinchi, avval aytib o‘tilganidek, romanning bosh qahramoni “Ramayana”, “Mahobhorat” shoh asarlarning vatani bo‘lmish Hindistonda o‘tib-ulg‘aygan. U, bir tomondan, otabobolarining badiiy mulki hisoblangan “Alpomish”u “Go‘ro‘g‘li”lar, ikkinchi tomondan esa ona yurti bo‘lib qolgan hind diyorining buyuk dostonlarini tinglab voyaga yetgan.

Ikkinchi, roman muallifi P.Qodirov – ixtisosi bo‘yicha sharqshunos. U Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, adabiyotini chuqur o‘zlashtirgan. Bundan tashqari, mazkur asarini yozish oldidan ikki marta Hindistonga safar qilib, u joyning tabiati, odamlari, urf-odatlarini, xalq psixologiyasi, tarixiy obidalarini o‘rgangan, madaniyatiga oid noyob kitob va arxiv materiallarini mutolaa qilgan.

Adibning tarixiy roman yozishdan oldin bu zaylda tayyorgarlik ko‘rishi Abdulla Qodiriyning ijodiy tajribasini eslatadi. Milliy romanchiligimiz asoschisi “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”ni yozishga hozirlik ko‘rar ekan, bir necha marta Farg‘ona vodiysiyu boshqa joylarda bo‘lgan va o‘zining buyuk kitoblarini yozish vaqtida ko‘rgan-kuzatgan narsalaridan juda o‘rinli, samarali foydalangan.

P.Qodirovning boy ijodiy-badiiy tajribasi – yillar davomida yozgan hikoya, qissa, romanlari bo‘yicha orttirgan malakasi, ijodkorlik salohiyati, ayniqsa, Hindiston moziysi, folklori, epik adabiyotidan yaxshigina bahramand bo‘lganligi “Avlodlar dovoni” yaxlit badiiy tizim, shakllangan matn sifatida yuzaga kelishiga imkon bergan.

“Ramayana”, “Mahobhorat” bilan “Yulduzli tunlar” orasidagi bog‘lanish-mushtarakliklar haqidagi dastlabki fikr o‘zbek adabiyotshunosligida taniqli munaqqid U.Normatov tomonidan aytilgan edi [5]. Chindan ham roman syujeti, xususan, uning Akbar bilan bog‘liq matniy bo‘lak(epizod)larida qadimiy va qudratli hind eposining ulug‘vor ruhi, oqimlari, ta’sirlari sezilib turibdi.

“Ramayana”dagi Rama, “Mahobhorat”dagi Yudhishtira timsolida adolatli hukmdor va mutafakkir inson xususiyatlari birlashtirilib, uyg‘unlashtirilib berilgan. Rama ham, Yudhishtira ham podsholik ilmi, mahorati, davlatni boshqarish borasidagi tajribalarni o‘rganish, sarkardalik, jangchilik saboqlarini har tomonlama o‘rganish bilan kifoyalanmay, insoniyat asrlar davomida to‘plagan dunyoviy va diniy-ilohiy bilimlarni ham to‘la-to‘kis o‘zlashtirganlar. Ayniqsa, Rama shaxsi va faoliyatida buyuk mutafakkirning eng oliy va yuksak fazilatlarini tajassum topgan. Uning qiyofasi, butun vujudida ilohiy nur balqib turadi. “Ramayana”dagi ijodiy personajlar uni ma’budlar bilan bir qatorda ko‘rib, maslahat va amrlarini sadoqat bilan bajaradilar.

Rama timsolida buyuk hind xalqining, shu bilan birga, bashariyatning komil inson haqidagi orzu-umidlari mujassam bo‘lgan.

Bunday mukammal, ideal inson – jangchi-sarkarda va fozil shaxs obrazi Alisher Navoiy badiiy merosida ham mavjud. Uning “Xamsa”sidagi Farhod (“Farhod va Shirin”), Iskandar (“Saddi Iskandariy”) timsollari jahon falsafiy va badiiy tafakkuri, Sharqu G‘arb adabiy-badiiy tajribalari,

jumladan, qadimiy epos (“Mahobhorat”, “Ramayana”, “Iliada”, “Alpomish”) namunalaridan ta’sirlanish, shuningdek, buyuk dostonnavis (A.Firdavsiy) va xamsanavislar (Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy) badiiy tajribalarini davom ettirish, adabiy-badiiy jarayon tarixining yangi bosqichida ularni qayta ishlab rivojlantirish natijasi bo‘lib yuzaga kelgan.

“Yulduzli tunlar”dagi Akbar obrazida jahon eposining oliy namunalari bo‘lmish “Ramayana”, “Mahobhorat”, shuningdek, “Alpomish” asarlaridagi yetakchi ijobiy qahramonlar bilan bir qatorda buyuk mutafakkir va insonparvar ijodkor A.Navoiy “Xamsa”sidagi bosh qahramonlararo muayyan aloqadorlik, bog‘lanish, robitalar borligi adabiyotlar, badiiy matn strukturalari orasidagi mushtaraklik qonuniyatlaridan kelib chiqqan hodisadir.

Turli tillarda, davrlarda har xil mualliflar yoki xalqlar tomonidan yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini insonga, insoniyatga xos tabiiy va ijtimoiy, psixologik xususiyatlar, badiiy tafakkur mushtarakligi, badiiy ijodning umumiy qonuniyatlari, shu bilan birga, adabiy-badiiy vorisilik-adabiy ta’sir kabi omillar o‘zaro bog‘lab yaqinlashtirgan.

Hindiston – jahon tarixi, madaniyati, ilmu fanining qadimgi maskanlaridan biri. Bu zaminda tug‘ilgan, ammo shajaraviy-genetik jihatdan Movarounnahr (Turkiston) farzandi bo‘lgan temuriyzoda-boburiyzoda Akbar o‘z shaxsi, psixologiyasi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida ana shu ikki zamin, ikki madaniyat, ikki xil milliy tafakkurni ajabtovur birlashtirgan, uyg‘unlashtirgan inson va davlat arbobi edi.

Tajribali adib va sharqshunos P.Qodirov “Yulduzli tunlar” qahramoni Akbar shaxsidagi ana shunday baynalmilal uyg‘unlikni ko‘ra olgan va bu xususiyatni Akbar timsolida san’atkorona tajassum ettirgan.

Hind durdonalari sanalmish “Mahobhorat”dagi Yudhishtira, “Ramayana”dagi Rama bilan o‘zbek yozuvchisining tarixiy romanidagi Akbarni birlashtirib turgan asosiy belgi-alomatlar quyidagilardan iborat:

1. “Mahobhorat”, “Ramayana”da, umuman, klassik (mumtoz) epos namunalari (“Iliada”, “Alpomish” va boshqalar)da bosh ijobiy qahramon (Yudhishtira, Rama...) ham jismonan, ham aqlan, ham qalban yetuk, barkamol, har tomonlama mukammal inson sifatida tasvirlangan. Epos qahramonidagi mana shunday xususiyat va fazilatlar muayyan darajada “Yulduzli tunlar”dagi Akbar obrazida ham ko‘zga tashlanib turadi. Bu o‘rinda qadimiy epos va P.Qodirov romaniaro bevosita va bilvosita aloqadorlik mavjudligini e’tiborga olish lozim.

To‘g‘ri, tarixiylik prinsiplari asosida yuzaga kelgan va realistik adabiyot namunasi bo‘lgan “Avlodlar dovoni” qahramoni qadimiy epos namunalaridagi markaziy obrazlar kabi ideal, “o‘tda yonmas, suvda cho‘kmas” insonlar qatoriga kirmaydi. Epopeya (epos) va roman qahramonlariaro muayyan yaqinlik, mushtaraklik bo‘lsa-da, ular bir-birlaridan farqlanib, ajralib turadi. Bu haqda biz ushbu tadqiqotning “O‘tkan kunlar”ga bag‘ishlangan bobida batafsilroq to‘xtalib o‘tgan edik.

2. “Ramayana”, “Mahobhorat” va “Yulduzli tunlar” qahramonlarida podshoh(hukmdor) va mutafakkir inson xususiyatlari uyg‘unlashtirib berilgan.

Hind eposining markaziy obrazlari davlat, uning mohiyati, vazifalari, davlat arboblarning burch va majburiyatlari, inson va uning tabiat va jamiyatdagi o‘rni, koinot, ilohiyot, shaxsning suvrati va siyrati kabi murakkab falsafiy-ilohiy muammolar haqida fikr yuritadilar. Ular o‘z hukmronlik faoliyatlarini insoniyatning azaliy va adolatli qonuniyatlari asosida olib boradilar va haqiqatni oliy maslak va maqsad deb biladilar. Zamin va uning kelajagi, mangulikka daxldorlik bu qahramonlarning doimiy diqqat markazida turadi.

“Mahobhorat”ning qahramoni Yudhishtira Kauravlarga qarshi jahon urushida ukasi Arjun samodagi ma’budlardan olib tushgan ilohiy, dahshatli qurol Pandularga g‘alaba keltirishi muqarrarligini bilsa-da, uni ishlatishga shoshilmaydi. Chunki u yer yuzini butunlay vayron qilib, koinot tizimini ishdan chiqarishi mumkin. Bu fakt podshoh Yudhishtiraning zamin, samo, bashariyat oldidagi mas’uliyatni chuqur tushunadigan donishmand, keng miqyosda fikrlaydigan inson ekanligidan dalolat beradi.

“Ramayana”ning bosh qahramoni esa Yudhishtiradan ham mukammalroq, donoroq zot. U koinot, tabiat, inson uyg‘unligi, mushtarakligini har tomonlama anglagan, o‘z faoliyatini haqiqat va adolat qoidalariga bo‘ysundirgan.

Rama ham, Yudhishthira ham har qanday diniy, mazhabiy nizolardan yuksak turgan, umuminsoniy axloq va munosabatlar, qonuniyatlar asosida ish ko'ruvchi komil va ilohiy zotlardir.

“Yulduzli tunlar” romanidagi Akbarga mumtoz hind eposining markaziy qahramonlariga xos mamlakat, jahon, koinot miqyosida fikrlash, o'z hukmdorlik faoliyatini teran tafakkur asosida olib borish, murakkab falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarga yechim izlash va topilgan yechimlar asosida o'z ishini yo'lga qo'yish kabi xususiyatlar xos.

Akbar davlat arbobi, podshoh sifatida adolatli qonunlar asosida ish yuritish, har xil nizo va adovatlarni yo'qotish hokimiyat poydevorini mustahkamlashini, aks holda tanazzul ro'y berishini tushunadi. Ayniqsa, din, mazhab mojarolari xalqni, mamlakatni, davlatni halokatga olib borishini anglab, bunday ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

Akbarning hindlardan olinadigan juzya solig'ini bekor qilishi, mamlakatdagi fuqarolarning vijdon erkinligiga ruxsat berishi, bir necha dinlarni o'zaro birlashtiruvchi mushtarak e'tiqod yaratishga urinishi keng – mamlakat, insoniyat, koinot miqyosida fikrlaydigan inson va davlat arbobi ekanligidan dalolat beradi.

To'g'ri, inson va zamin farzandi hamda realistik roman qahramoni bo'lmish Akbar “asl epos” – epopeyadagi yetakchi obrazlardan farqli ravishda o'z hayoti, faoliyati davomida ba'zi bir xatolarga ham yo'l qo'yadi. Saroy xushomadgo'ylarining ta'sirida o'zini ilohiy bir zot – mahdiy deb o'ylaydi. Ba'zi bir yaqin kishilari (Mohim enaga, Adhamxon)ga ortiq darajada ishonadi. Bu esa davlat, hokimiyat ishiga, xalq hayotiga salbiy ta'sir qila boshlaydi.

Yozuvchi roman qahramoni Akbar xarakteridagi muayyan nuqson, adashish va ruhiy-ma'naviy iztiroblarni tasvir etish orqali, bir tomondan, tarixiy shaxs hayotidagi aniq fakt va ma'lumotlarga suyanib ish ko'rgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, badiiy obraz, qahramon badiiy qurilmasida psixologik, madaniy-intellektual maydonni kengaytirish, chuqurlashtirish, bu orqali syujet dinamizmi (shiddatkorligi), qiziqarliligini ta'min etishga muvaffaq bo'lgan.

Kuchli, irodali va nihoyatda jasoratli Akbar hayotidagi qiyinchiliklarni ham, o'z fe'l-sajiyasidagi nuqsonlarni ham yengishga qodir shaxs bo'lgan. “Avlodlar dovoni”da qahramonning ijtimoiy faoliyat va shaxsiy hayot, shuningdek, ruhiy-ma'naviy olamidagi ziddiyat, to'siq va xatnuqsonlarni yengib o'tishi va axloqiy-intellektual poklik bosqichi tomon ko'tarilishi ishonarli va tarixiy haqiqat mezonlariga muvofiq ko'rsatib, tasvirlab berilgan.

Ko'hna va buyuk hind eposlari qahramonlariga xos donolik, keng va olamshumul miqyosda fikrlash, davlat, insoniyat, insonparvarlik manfaatlari yo'lida harakat va faoliyat Akbar qiyofasi, ichki dunyosi, suhbat-muloqotlarida aks etib turadi. Shu bilan bir qatorda, Akbar obrazining badiiy maydonida XVI asr – aniq tarixiy shart-sharoitda shakllangan adolatparvar, insoniy davlat arbobi hamda ulkan miqyosda fikrlaydigan yetuk insonning, jangchi va sarkardaning ustuvor xususiyatlari, belgi-alomatlari mujassamlashtirilgan.

Ta'kidlash joizki, roman qahramonlaridan biri bo'lgan Akbar timsoli strukturasi, shuningdek, tarixiy romanning syujeti birliklarida, badiiy ifodasida, obrazlararo munosabatlarda, xarakterlar tizimida, umuman olganda, badiiy matnning falsafiy-poetik tizimida u yoki bu darajada “asl epos”, ayniqsa, “Ramayana”, “Mahobhorat”ga uyg'unlik, yaqinlik alomatlari sezilib turadi.

“Avlodlar dovoni” syujeti, qahramon strukturasi, obrazlarning voqea tizimidagi harakati, eng muhimi, badiiy konsepsiyasida “asl epos” (epopeya)ning ham, roman-epopeya janrining ham muayyan bir belgi-xususiyatlarini ko'rsa bo'ladi.

Asar badiiy konsepsiyasi markaziga xuddi “Alpomish”, “Iliada”, “Ramayana”, “Mahobhorat” eposlaridek, eng avvalo, insoniyat uchun muhim va dolzarb bo'lgan urush va tinchlik muammosi qo'yilgan. Epopeyada bo'lganidek, romanda mamlakat, bashariyat, xalq tinchligini o'ylaydigan va shu yo'lida faol harakat qiladigan odamlar bir guruhga, aksincha urush, nizo, adovat tuyg'usi, maqsadi bilan yashaydigan kimsalar boshqa guruhga bo'lingan. Mana shu guruhlarning ijtimoiy-siyosiy, diplomatik, shaxsiy-emotsional munosabatlar “Avlodlar dovoni”ning asosiy syujet oqimini ham, yetakchi badiiy konfliktini ham belgilab bergan. Bundan tashqari, romandagi ancha keng, batafsil jang manzaralari, urush jarayonida ishtirok etayotgan sarkarda va askarlarning xatti-harakatlari, ruhiy holatlari, shuningdek, qahramon va personajlarning dunyoqarashi, ular e'tiqod

qo‘ygan yoxud rad etadigan ta‘limotlar, nuqtai nazarlar, falsafiy-intellektual, diniy-axloqiy mushohadalarda ham muazzam epopeyaga xos ayrim belgi-xususiyatlar mavjud.

Masalan, Muhammad Humoyun mirzoning Hindistondagi ota meros saltanatidan mahrum bo‘lib, Afg‘oniston, Eron kabi mamlakatlarda quvg‘inda, darbadar yurishi “Ramayana”dagi Ramaning, “Mahobhorat”dagi Pandularning hokimiyat va davlat ishlaridan mahrum etilib, g‘urbatda umr kechirishlariga monandir.

Hind eposi namunalari va o‘zbek tarixiy romani syujeti orasidagi yaqinlik faqat shu bilangina cheklanib qolmaydi. Pandularning uzoq muddatli mashaqqatli kurash va jang-jadallardan so‘ng qonuniy va merosiy toj-taxtni qo‘lga kiritishlari, Ramaga qarshi o‘gay onasi – malika Kayki fitnasining fosh bo‘lishi, bu afsonaviy-ilohiy qahramonning jamiki yovuzlik, qabohatlarning timsoli – devlar podshohi Ravan saltanati ustidan porloq g‘alabasi “Avlodlar dovoni” romanida mirzo Humoyunning darbadarlik, xor-zorliklardan so‘ng avvalgi mavqeini tiklab, Hindistonga qaytib kelib o‘z hokimiyatini tiklashi, uning o‘g‘li Akbarning otalig‘i – xoni xonon Bayramxonning hukmronlikni egallab olish uchun qilgan xurujlarini bartaraf etishi voqealariga mushtarak.

“Asl epos”ning aksariyat namunalari – “Ramayana”, “Mahobhorat”, “Iliada”, “Alpomish”da ma‘bud va ma‘budalar, avliyolar, chiltanlarning ruhlari zamindagi voqealarga, yetakchi qahramonlarning hayoti, faoliyati, kurashlariga yordam beradilar, ularning taqdiriga ta‘sir ko‘rsata oladilar.

“Avlodlar dovoni”, umuman olganda, milliy romanchilik maktabi namunalarida afsonaviy, ilohiy siymolar, zotlarning qahramonlar hayotiga bevosita aralashishi, ularga ko‘maklashishi va ta‘sir qilishi yo‘q. Bu, birinchi navbatda, epopeya (epos) varoman janrlarining, romantizm va realizm ijodiy metodlarining tafovuti bilan izohlanadi.

Yangi davr va yangicha tafakkurning mevasi bo‘lgan roman o‘z badiiy hududiga zaminiy munosabatlarni, insonga, real hayotga xos voqealarni, oddiy (hayotiy) insonlar obrazlarini qabul qildi. To‘g‘ri, roman, shu jumladan, tarixiy roman badiiy maydonida g‘ayrioddiy voqealar, afsona, rivoyatlar, ilohiy, mistik siymolar ishtirok etishi mumkin. Ammo bunday hodisa va obrazlarning ishtiroki, epos (epopeya) janri namunalarida bo‘lganidek, hal qiluvchi, yetakchi o‘rin hamda ahamiyatga ega bo‘lmay, ular inson tafakkuri, dunyoqarashi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Pragmatik, dialektik dunyoqarash tahlil hududiga tortiladi va yangi davr, yangi inson ong darajasi, intellektul saviyasi nuqtai nazaridan badiiy-falsafiy xulosalar, yechimlar ishlab chiqiladi.

Qaysi bir ma‘noda “Avlodlar dovoni” yigirmanchi asrning birinchi choragida yuzaga kelgan va ulug‘ san‘atkor Abdulla Qodiriy tamal toshini qo‘ygan hamda keyinroq butun Markaziy Osiyo badiiy maydonini qamrab olgan “yangi romanchilik maktabi” taraqqiyotining muayyan bir davr (o‘tgan asr) bo‘yicha adabiy-badiiy izlanishlarni, yo‘l tanlashlar, mazmun va shakl bo‘yicha tajribalar yo‘lining intihosi, yakuni ham desa bo‘ladi. U, avvalam-bor, muallif Pirmqul Qodirovning o‘ziga xos ijodkorlik iste‘dodi, izchil mehnati, milliy, insoniy jasorati mahsuli bo‘lib yuzaga kelgan.

Shuningdek, bu tarixiy roman badiiy olamida 60-80-hamda 90-yillardagi adabiy-badiiy jarayonning, romanchilik taraqqiyotining badiiy-poetik, falsafiy-dialektik saviyasi, an‘ana va yangiliklari mujassam bo‘lgan.

Bundan tashqari, bu romaning badiiy struktural kengliklarida “asl epos”(epopeya), jahon adabiy-badiiy jarayoni, ayniqsa, romanchiligining badiiy-poetik, falsafiy tajribalari, yutuqlari, badiiy prinsiplari ham ifoda topgan.

XULOSALAR.

Shu tariqa Sharq va G‘arb adabiyotlaridagi ilg‘or, qadimiy va zamonaviy adabiy-badiiy an‘analar, tajribalar milliy estetik, falsafiy tafakkur zaxiralari, imkoniyatlari birlashib moziyning muayyan bir davrdagi keng, murakkab, ziddiyatlarga to‘lib-toshgan hayoti manzaralarini ko‘lamdor, badiiy-emotsional tarzda realistik ijodiy metodning tarixiylik mezonlariga muvofiq gavdalantirishga imkon yaratib bergan.

Iqtiboslar / References / Сноски

- [1] Бахтин М. Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986. – С. 401. Яна қаранг: .Бахтин М. Эпос ва роман. М.Олимов таржимаси// Филология масалалари. – Тошкент, 2005. 2-3 (9)-сон.
- [2] Алпомиш (ўзбек халқ қаҳрамонлик достони) - Тошкент: Шарқ, 1998.
- [3] Махобҳорат (Бҳарата авлодлари жанғномаси). – Тошкент Ёзувчи, 1995.
- [4] Ҳомер. Илиада. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
- [5] Кодиров П. Ҳумоюн ва Акбар. – Тошкент: Шарқ, 1997.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000